

SAID AHMAD NASRINING NAFISLIGI

Murotova Yulduz Faxriddin qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti 3- kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nasrnavis va dramaturg, o‘zbek adabiyotida kichik nasr - hikoya ustasi sifatida tanilgan mashhur yozuvchi Said Ahmad qalamiga mansub hikoyalar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Hikoya, “Cho‘l burguti”, “Cho‘l shamollari”, “Tunlar va cho‘llar”, “Buqalamun bilan uchrashuv”, “Qoplon”.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Unda tajriba qilish, sinab ko‘rish, ochilmagan yo‘llardan yurish, xato qilish imkoniyati mavjud edi. Bu hol birovga o‘xshamaydigan, o‘zgalarni takrorlamaslikka intiladigan o‘ziga xos istedodlarning ko‘payishiga imkon yaratadi. Xilma-xil badiiy asarlarning vujudga kelishi tufayli xilma-xil o‘quvchilar paydo bo‘ladi. Badiiy didi yuksak, so‘zni nozik his etadigan, sezimlardagi yengil tebranishlarni ham ilg‘ay oladigan kitobxonlar ko‘payib ular asarlarni ham tanlab o‘qishadi. Said Ahmad ana shunday nozik didli kitobxonlar tomonidan hamisha sevib o‘qiladigan asarlar muallifidir. U nasrnafis va dramaturg, o‘zbek adabiyotida kichik nasr - hikoya ustasi sifatida tanilgan.

Uning ko‘plab yuqori badiiy mahorat ila yozilgan novella va hajviy hikoyalari milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Mislsiz xizmatlari uchun Said Ahmad “Buyuk xizmatlari uchun” va “Do‘stlik” ordenlari hamda “O‘zbekiston qahramoni”, “O‘zbekiston xalq yozuvchisi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” sharaflari unvonlariga sazovor bo‘lgan.

30-yil oxirlaridan Said Ahmad badiiy nasr janrida samarali ijod qildi, uning birinchi hikoyalar to‘plami “Tortiq” 1940 yil nashr etilgan. “Jimjitlik” romanida turg‘unlik davri illatlari fosh etiladi. 40-yillar uning “Er yurak” (1942), “Farg‘ona hikoyalari” (1948), “Muhabbat” (1949) kabi to‘plamlari nashr etilgan. 50-yillar boshi, 60-yillar oxirida Said Ahmadning ijodi yanada yuqoriroq badiiy darajaga ko‘tariladi. U o‘nlab lirik va hajviy hikoyalar yaratib, o‘zbek adabiyotining hikoya janri rivojida muayyan o‘ringa ega bo‘lgan. Bu yillar Said Ahmad ijodida yangi mavzu alohida e‘tiborga loyiq - bu Markaziy Farg‘onaning bo‘z yerlarini o‘zlashtiruvchilar hayotining aks etish mavzusidir. Bu hikoyalar “Cho‘l burguti”, “Cho‘l shamollari” va “Tunlar va cho‘llar” kabi to‘plamlardan joy olgan bo‘lib, bizning ko‘pmillatli adabiyotimizdagi “qishloq nasri”ning o‘ziga xos timsollari hisoblanadi. Said Ahmad o‘zini nasrning yirik janrlarida ham sinab ko‘rgan. U “Hukm” qissasini yozgan. Shuningdek, o‘zbek nasrida nisbatan sust rivojlangan detektiv janri asosidagi “Sud” qissasini yaratib, unda axloqiy-tarbiyaviy muammolarni ilgari ko‘taradi. Va, nihoyat, “Ufq” trilogiyasini yozadi. Ushbu trilogiya yozuvchi ijodida alohida o‘rin tutudi — zamonaviy o‘zbek nasridagi yirik hodisa. Said Ahmad ushbu romanlar ustida 15 yil mehnat qilgan. Ular yozuvchining butun hayot yo‘lini qamrab olgan - urushdan oldingi, urush davridagi va urushdan keyingi yillarni. Roman asosida chin tarixiy voqealar yotadi - Katta Farg‘ona kanalining qurilishi va Markaziy Farg‘ona kanalining egallanishi. Ushbu tarixiy hodisalar asosida yozuvchi xalqning ma‘naviy dunyosini ochib, qadimdan ularga hos mehnatkashlikni, to‘g‘riso‘zlik, jasorat - xalqaro ittifoqdoshlik va jamoaviylikni ko‘rsatib beradi - bular esa inson qalbiga xos olijanob va himmat manbalari sanaladi. “Ufq” o‘zbek va rus tillarida ko‘pkarra nashr etilgan, qardosh xalqlarga bir necha bor tarjima qilingan.

Kitobxonlar orasida shubhasiz, shuhrat qozongan mazkur trilogiya uchun muallif 1978-yil Hamza nomidagi O‘zbek SSRning Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. Said Ahmad dramaturgiya va kinodramaturgiya sohalarida ham samarali ijod qiladi. Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘aloni” komediyasining shuhrati juda

baland bo'lgan. Ushbu komediya spektakli hanuz O'zbekiston va qardosh xalqlarning teatr sahnalarida namoyish etiladi.

Bilamizki, Said Ahmadning ko'plab hikoyalari satira va yumorga boy. Said Ahmadning hikoyalaridagi o'ziga xoslik ham aynan shunda. Ular orasida "Qoplon" hikoyasi tom ma'noda jamiyatdagi ayrim illatli vaziyatlarni ochib berishga, hayotimizning og'riqli nuqtalari yoinki insonlar duch keladigan va ularning dilini yaralaydigan voqealarni izohlashga qaratilgan. Munofiqlik, riyokorlik, mansabparastlik, xiyonat bu kabi illatlarni o'ziga do'st qilib olgan kishilarni ming taassuf bo'lsinki bir umrimiz davomida judayam ko'p uchratamiz va bu narsa davom etib kelyapti. Chunki, jamiyatda, boringki butun olamda hozir insonlarni faqat o'zini o'ylashi va o'z manfaatlari uchun har qanday jirkanch ishlarga qodir ekanligini ko'rishimiz mumkin. Aynan, mana shu hikoyada butun boshli katta bir muammo yoxud illat bittagina, oddiygina voqea bilan ochib beriladi. Biz bunday voqealarga ko'p guvoh bo'lamiz, shunchaki unchalik ahimiyat bermaymiz. Bu hikoya esa o'sha biz e'tiborsizlarcha qoldirgan ba'zi bir voqealarni eslashga, ularni qayta yodga olishga undaydi. Axir adabiyotning vazifasi ham shundan iborat.

Said Ahmadning "Buqalamun bilan uchrashuv" hikoyasi o'zbek adabiyoti uchun muhim hodisa hisoblanadi. Buqalamun nomli asarlar nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotida ham uchrashiga guvohi bo'lganmiz. Jumladan, Anton Pavlovich Chexov qalamiga "Xameleon" (Buqalamun) hikoyasi adib ijodining eng yaxshi namunalaridan biri bo'lgani holda 1884-yil Chexov shifokor vazifasida ishlay boshlaganda chop etilgan. Asarning bosh qahramoni politsiya nazoratchisi Ochumelov bo'lib, u orqali inson ichidagi bir necha qiyofalarni ochib berishga harakat qilingan.

Said Ahmadning "Buqalamun bilan uchrashuv" hikoyasida jamiyat uchun havf tug'dirayotgan turli maqomga o'ynaydigan kimsalarning asl bashrasi ochib berishga urinilgan. Chexovning Xameleoni kim o'zi? Yozuvchi bu savolga javob berish uchun insonni emas, balki oddiy itni vosita qiladi. Bir itning egasini topish masalasi insonlarning yuzlaridagi "niqoblar"ini yechib tashlaydi. Oddiy hodisadek

tuyuluvchi bu kulgili va achinarli holat orqali insonlarning yaxshi va “quloqlari tinch” yashashlari uchun hech narsadan qaytmasliklari mahorat bilan ochib beriladi. Said Ahmadning “Buqalamun bilan uchrashuv” asarida jamiyatda uchraydigan zamona zayliga o‘ynaydigan o‘z fikriga ega bo‘lmagan inson tasviri chiziladi. Inson jamiyat bilan bevosita emas, balki bilvosita munosabatga kirisha oladigan, o‘tkir zexn, ong sohibi sanaladi. Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Asarda yozuvchi qahramonlar portretini chizishga alohida ahamiyat bergan. Portret, aslida, personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri sanaladi. Adib ham o‘z hikoyasi qahramoni bilan ochiqchasiga konfliktga boradi. U hikoyada qahramonga yolg‘ondakamiga bo‘lsada ism qo‘ymaydi. Bu orqali adib qahramonni odam sifatida ko‘rmaydi, uni jamiyatdagi o‘rni yo‘qligiga ishora qiladi. Beixtiyor o‘quvchi ham o‘ylanib qoladi. Bu kabi insonlarni yetishib chiqishiga nima sabab? Albatta, bunda zamon emas shaxs aybdor deyish mumkin. Chunki u bilan bir safda yurgan insonlar emas aynan u o‘zgarayabdi. Nimaga yozuvchi unga nisbatan buqalamun demoqda. Chunki u har maqomga o‘ynaydigan, bir so‘z bilan aytganda, ikkiyuzlamachi inson. Shu sababli ham yozuvchi ushbu qahramonga nisbat bermay buqalamun deyishdan nariga o‘tmaydi. Buqalamun-vaziyatga qarab o‘z rang tusini o‘zgartiruvchi hayvon hisoblanadi. Adib aytayotgan qahramon ham davrga qarab maddohlik qiluvchi buqalamun inson sanaladi.

Adabiyot urmaydi, so‘kmaydi shunchaki sizga biror voqeani ko‘rsatib, yoritib beradi. Siz esa bu asarni o‘qish mobaynida ham ma’naviy ozuqa, ham o‘zizga yetarlicha xulosa ham chiqara olasiz. Zero, badiiy adabiyot dunyo qarashni oshiradi degan xulosa bejizga kelib chiqmagan. Bu maqolada o‘sha asarning tahlili va uning inson hayotiga tatbiqi yoxud u kitobxonga nima bera olishi haqida gap ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. www.asaxiy.uz
2. <https://library.navoiy-uni.uz>